

YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KREATIVLIK DINAMIKASI VA MOTIVATSION JIHATLARI.

Isomiddinov Azizbek Abdumajidovich

*O'zbekiston Respublikasi IIV Farg'ona akademik litseyi
Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi boshlig'i
falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Jamiyat salohiyati tizimida yoshlar intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. Bu esa taraqqiyot istiqboli nuqtai nazaridan yoshlar intellektual salohiyati kelajak tarixining mohiyatini belgilab beruvchi asosiy kuch sifatidagi ahamiyati ochib berilgan. Uning mavjudligi, taraqqiyotining asosida ma'lum ijtimoiy va madaniy omillar tahlil qilingan. Jamiyatda inson salohiyatining yuksaklik darajasi uning xususiyatlari va mazkur muammo bilan aloqador bir qator ijtimoiy hodisalarning amalga oshib borishi kabi omillar har qanday davlat, millat taraqqiyoti va mamlakat hayotining ijtimoiy yuksalishiga ta'sir etishi o'rganilgan.

Исомиддинов Азизбек Абдумажидович

Фергана, МВД Республики Узбекистан академический лицей
Юридический и социально-гуманитарный
Заведующий отделом наук, доктор философских наук (PhD)

Аннотация: Интеллектуальный потенциал молодежи занимает важное место в системе потенциала общества. В нем раскрывается значение интеллектуального потенциала молодежи как главной силы, определяющей сущность будущей истории с точки зрения перспектив развития. На основе его существования, развития были проанализированы определенные социальные и культурные факторы. Изучено влияние таких факторов, как уровень высокого человеческого потенциала в обществе, его особенности и реализация ряда социальных явлений, связанных с данной проблемой, на развитие любого государства, нации и социальный подъем жизни в стране

DYNAMICS OF CREATIVITY AND MOTIVATIONAL ASPECTS IN DEVELOPING YOUTH'S INTELLECTUAL CAPACITY

Isomiddinov Azizbek Abdumajidovich

Fergana, Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan
academic lyceum Legal and social-humanitarian
Head of the Department of Sciences, Doctor of Philosophy (PhD)

Abstract: The intellectual potential of young people occupies an important place in the system of community potential. From the perspective of development, the importance of the intellectual potential of young people as the main force that determines the essence of future history is revealed. Certain social and cultural factors are analyzed on the basis of its existence and development. It has been studied that factors such as the high level of human potential in society, its characteristics and the realization of a number of social events related to this problem affect the development of any state, nation and the social development of the country's life.

Kalit soʻzlar: Yoshlar, intellektual salohiyat, ijtimoiy-madaniy omillar, salohiyat, intellektual kapital, intellektual resurs, aqliy faoliyat, intellektual qobiliyat.

Ключевые слова: Молодежь, интеллектуальный потенциал, социокультурные факторы, потенциал, интеллектуальный капитал, интеллектуальный ресурс, умственная активность, интеллектуальные способности.

Key words: Youth, intellectual potential, socio-cultural factors, potential, intellectual capital, intellectual resource, mental activity, intellectual ability

Kirish

Jamiyat aʼzolarining salohiyati tizimida yoshlar intellektual salohiyati muhim oʻrin tutadi. Jamiyat taraqqiyoti istiqboli nuqtai nazaridan yoshlar intellektual salohiyati kelajak tarixining mohiyatini belgilab beruvchi asosiy kuch sifatida qaraladi. Uning mavjudligi, taraqqiyotining asosida maʼlum ijtimoiy va madaniy omillar turadi.

Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bogʻliq koʻnikmalar majmui sifatida namoyon boʻladi. Kreativlik oʻz ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan koʻra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuygʻularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon boʻladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehning oʻtkirlikini belgilab beradi .

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoni yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va oʻzgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo echimini topishda bilim va amaliy harakatlarning oʻzaro qarama-qarshiligiga nisbatan taʼsirchanlik.

Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin . Bu esa shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his- tuygʻularida, muayyan

faoliyat turlarida namoyon bo'lishini bildiradi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham namoyon bo'ladi.

«Kreativ»lik bu – yaratish va ijod qilishdir. Yaratish, ijod mohiyatan ijtimoiy xususiyatga ega voqeliklar bo'lsa-da, ijod psixologiyasi va nazariyasiga oid adabiyotlarda u xususiy, individual psixologik hodisa sifatida qaraladi. Mazkur yondashishdan farqli tarzda biz kreativ faollikning ijtimoiy tomonlariga e'tibor qaratamiz. Intellektual salohiyatning ekstravertiv, ya'ni ijtimoiy borliqqa yo'naltirilganligi bir qator ilmiy-falsafiy masalalarni kun tartibiga qo'yadi. Ular haqida ma'lum nazariy qarashlarga, tasavvurlarga ega bo'lmay, mavzuning mohiyati va ahamiyatini anglash qiyin. Ushbu masalalar quyidagilardan iborat:

- ijodiy kognitiv voqelikning ekstravertiv voqelikka aylanishi qanday motivlar, stimullar yoki ustanovkalar orqali ro'y beradi?;

- mazkur jarayonda “men” va “biz” manfaatlari singarmonistikasi saqlanib qoladimi yoki barcha jarayonlarni “biz” o'ziga “yutadimi”?;

- tashqi deterministik omillar kreativ faollikka undovchi ichki ma'naviy ruhiy mexanizmlarni o'zining qaysi qonunlariga muvofiq harakatga keltiradi?;

- yoshlarning ijtimoiy kreativ faolligi faqat ekstravertiv xususiyatga egami yoki unda ichki ma'naviy ruhiy, intravertiv belgilar ham mavjudmi?;

- ijtimoiy kreativ faollikni o'lchash qanday amalga oshiriladi, u qaysi mezonlarga muvofiq baholanadi?.

Ijodiy kognitiv voqelikning ekstravertiv voqelikka aylanishi ma'lum motivlar, stimullar orqali ro'y beradi. Mazkur psixologik omillarni anglamaslik, bilmaslik kreativ faoliyatni noob'ektiv baholashni keltirib chiqaradi. Ularning har biri sotsiologiya va psixologiyada alohida ma'naviy ruhiy hol sifatida tadqiq etiladi, o'rganadi. Biz ularni umumiy nom bilan kreativ faollikni «Dolzartlashtiruvchi omillar» deb ataymiz, chunki bizningcha, aynan shu jarayonda shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan, muhimlik va zarurlik baxsh etadi, uning bor jismoniy va ma'naviy ruhiy kuchini safarbar etib, qo'yilgan maqsadga erishishga undaydi .

Kreativlik va aql (intellekt)ni ajratib talqin qilish Suqrot dan boshlab, Aflotun, Arastu va keyinchalik Kant, Gegel falsafalarida ham alohida ahamiyat kasb etgan. Ijodiy jarayonni Aflotun «ruhlanish» va «ilohiy kuch» atamalarini orqali asoslashga intiladi. Uning fikricha, «Shoir san'ati va bilimi bilan ijod qilmay, balki ilohiy quvvatdan ijod qiladi» . «Kreativlik» va «kreativ tafakkur» masalasida yunon faylasuflari singari musulmon olim-mutafakkirlari ham o'ziga xos maktab yaratganlar. Shu ma'noda diniy-falsafiy ta'limotlar mutakallimlik va o'taziliylik, sunniylik, shialik va tasavvuf kabilarda insonning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Chunonchi, kalamning ikki yirik yo'nalishi mutakallimlik va mo'taziliylik islom ta'limoti qoidalarini talqin etishda ijodiy yondashuvni ishga

solishni, kreativ usullardan foydalanishni yoqlab chiqdilar.

Ijtimoiy kreativ faollikni avvalo, insonning jamiyatda, borliqda, mavjud munosabatlar tizimida o'z o'rnini topish istagi ifodasi sifatida e'tirof etish kerak. Mazkur istak ijtimoiy hayot va muhit tomonidan shaxsda dolzarblashganida uni faol harakatga keltiradi. Kreativlik va uni dolzarblashtirish muammolarini o'rgangan A.G.Maslou yozadi: «Agar biz chindan ham farzandlarimizning o'zida mavjud barcha kuchlarni dolzarblashtirishini istasak, biz ularni birdan-bir maqsad, ya'ni ijod orqali tarbiyalashimiz zarur». Faylasuf, psixolog ta'lim-tarbiya, yoshlarni hayotga tayyorlash masalalari ustida fikrlab, bugun dunyo tez o'zgarayotganini, yangi-yangi muammolar paydo bo'layotganini, bunday sharoitda yoshlar o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, yuzaga kelgan qiyinchiliklarga tik qaraydigan va yangilikni «faxr va quvonch bilan qarshi oladigan» qilib shakllantirish zarur, degan xulosaga keladi.

Yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishda ijodiy faollik va kreativlik dinamikasi tadqiqida dunyoni barqaror va turg'un qilmaydigan, ota-bobolarimiz kabi uni qotirmaydigan, mavhum ertaga ishonch bilan boqadigan, bo'lg'usi o'zgarishlar va o'zgaruvchan hayotga ko'tarinki qaraydigan, hayotga improvizatsiyalashib va moslashib yashaydigan kishilar bo'lishimiz kerak. Bu yangi tipdagi kishidir. Istasangiz uni Geraklit tipidagi inson deyishingiz mumkin. Bu o'rinda gap ijodiy faollikning ichki ruhiy holat, o'zini kashfiyotga baxsh etish, hatto, A.G.Maslou ta'kidlaganidek, motiv, stimullar ana shu psixologik holatga borib taqalmoqda. Demak, salohiyatda ikki darajadagi bosqich mavjud: birinchisi – «ekstaz» darajasidagi bosqich, ikkinchisi «improvizatsiya va moslashuv» darajasidagi bosqichdir. Innovatsiya ularning ikkalasini ham o'z ichiga oladi yoki ulardan iboratdir. Birinchisiga insonning betakror yangilik, kashfiyot qilishga intilishi, ikkinchisiga esa boshqalar ixtirolarini olib kirish, o'z muhitiga joriy etish, o'rnatish bilan bog'liq, mohiyatan tashkiliy texnik sa'y-harakatlar kiradi. Keyingisida sir yo'q, uni oddiy aql egalari ham bajarishi mumkin.

Ijodiy faoliyatning «ektaz» intravertiv xususiyati «Men» va «Biz» manfaatlarini o'rganishga undaydi. Haqiqiy ijodkor o'z «men»ini mutlaqlashtirishga moyil bo'ladi, u fikriga quloq tutadigan yoki uni eshitadigan kishi bilan muloqotga kirishishni ma'qul ko'radi. Undagi bu intravertlik ijodiy izlanishlar uchun muhim bo'lsa-da, u, ayniqsa, ilmiy-texnik ijod sohasida «Biz», ya'ni ijtimoiy manfaatlar bilan hisoblashishga majbur. Yadro qurolining yaratilishi insoniyat boshiga qanday ofatlar keltirishi mumkinligini, bu esa ilmiy-texnik izlanishlarda insoniyat manfaatlarini hisobga olmaslik natijasi ekanini tasdiqlaydi.

Bu ibratli misol har bir ilmiy-texnik kashfiyot uchun muhim tamoyildir. Masalan, internetni olaylik. Ha, u inson aqlu idrokining yuksak mahsuli, har bir kishining jahonda bo'layotgan voqealarga faol munosabat bildirish, turli bilimlarini oshirish imkon. Ammo u destruktiv, tajovuzkor qo'llarga tushganida, yovuz, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, innovatsion tafakkurda «men» va

“biz” masalasi behuda qo‘yilmayotganini anglaymiz.

O‘zbekistonda har yili ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashishga, o‘z hayot yo‘lini izlashga tayyor, yarim milliondan ziyod yoshlar maktabni bitiradi. 450 mingdan ziyod oliy va o‘rta maxsus bilimli yoshlar turli sohalarda o‘zini, bilimi va ko‘nikmalarini ko‘rsatishga tayyor. Innovatsion o‘zgarishlar, ilmiy-texnik kashfiyotlarni joriy etish yangi ish joylari yaratishga olib kelmaydi, balki ishchi o‘rinlarini tejaydi. Mazkur ziddiyatni ilmiy-texnik yangiliklar bilan hal etish qiyin. Inson faoliyatining barcha sohalarini, qo‘l mehnatini avtomatlashtirib, innovatsion kashfiyotlar bilan almashtirib bo‘lmaydi. Demak, jamiyatda qo‘l mehnatiga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qoladi.

Innovatsion tafakkur ijtimoiy taraqqiyot talablaridan ozuqa oladi, u «O‘z-o‘zi uchun» emas, balki jamiyat rivoji uchundir. “Biz”ning ilmiy-texnik va yangilanishga ehtiyojlari, A.G.Maslou ta’kidlaganidek, “ego”dan voz kechishga olib keladi. Uning negizida ijodiy izlanishlarga butkul berilish, boshqalarning fikrlarini e’tiborga olmaslik, faqat ijod dardi bilan yashash, “siz o‘z Egongizni kuzatuvchi va o‘z Egongizni sezuvchi” kabi ikki sub’ektga ajralishingizni unutish yotadi. Bunday holda “Biz” ijodkor “Men”ini o‘ziga mutlaq yutib yubormaydimi, degan savol uyg‘onishi mumkin. Ha, an’anaviy jamiyatlarda shunday xavf katta. Bu xavfni ijodkor “men”ini, uning individual izlanishlarga moyilligini e’tirof etgan holda, kreativ faolligiga ijtimoiy yo‘naltirilganlik baxsh etish orqali kamaytirish mumkin. Ijodkorning “Men”i jamiyatning “biz”ga antagonist emas, pirovard natijada, barcha ixtirolar kishilikka qanday naf, foyda va ezguliklar bergani bilan o‘lchanadi.

XULOSA

Yoshlarning innovatsion xususiyatlari o‘zlari kabi talqin qilinishi kerak bo‘lgan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, har qanday ijtimoiy sharoitda, har qanday joyda yoshlik davri ushbu xususiyatlarga bog‘liq bo‘lishini hisobga olish kerak bo‘ladi. Bu bilan vorislik va avlodlar almashinuvining tabiiy-tarixiy jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshadi. Bu jarayon jamiyatda barqarorlikni ta’minlaydi va ularni mos ravishda o‘zgartirish muammolarining ichki o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi.

Bir jihatdan yoshlarning innovatsion faoliyati faollik, tezkor reaksiyalar bilan ajralib turadigan, barchaga qiziqadigan va yangi vaziyatlardan qo‘rqmaydigan shaxs sifatida ko‘rinib, ikkinchi jihatdan ehtiyotkor, o‘rganilgan qoidalarga amal qilishga moyil, yangi narsadan qo‘rqish kabi xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu yangilik ekanligining alohida ahamiyatini tan olish yoshlik davridagi xususiyatlar ayniqsa aktallashtirilgan, biz ularga yoshlikning innovatsion xususiyatlarini aniqlab olishni juda erta deb hisoblaymiz va aynan shu yondashuv juda keng tarqalgan. Bu yoshlarning potensial va innovatsion imkoniyatlari innovatsiyadan innovatsiyaga sifatli o‘tishi tadqiq etilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги Қонуни. – Тошкент: Адолат, 2016. – Б. 14.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
3. Bilish falsafa (gnoseologiya) - Toshkent: Universitet, 2005. – B 535.
4. Norqulov S. Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ongda transformatsiya jarayonlari - Toshkent: Navroz, 2015. – B. 190.
5. Бердяев Н.А. Философия свободы. Смысл творчества - Москва: Правда, 1989 - С.608.
6. Российская социологическая энциклопедия. Под ред. Г.В.Осипова – Москва: Норма инфрам., 1998 – С. 512.
7. Маслоу Г.А. Дальние пределы человеческой психики. Спб.:Изд. гр. Евразия, 1997. – С. 420.
8. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 369.
9. Sherov M.B. Kreativ tafakkur haqidagi falsafiy qarashlar evolyutsiyasi. Academic Research in Educational Sciences. Vol. 1 No. 1, 2020 ISSN 2181-1385. – Б.3.